# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024

№ 6




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 290 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya,** TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi,** Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri oʻrinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., OʻzR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar boʻyicha prorektor v.b.
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TDIUprofessori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar doʻstligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d., TSUE professori
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Utayev Uktam Choriyevich,** OʻzR Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farxod,** OʻzR Bosh prokuraturasi IJQKD boshligʻi
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musayeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Cham Tat Huei,** ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamgʻarmasi ijrochi direktori oʻrinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** t.f.f.d.(,PhD) TAQU katta oʻqituvchisi
**Djudi Smetana,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Krissi Lyuis,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Ali Konak (Али Кўнак),** i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
**Glazova Marina Viktorovna,** i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon oʻgʻli,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung,** honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten,** member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich,** DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich,** DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna,** PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich,** CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich,** DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli,** DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod,** Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich,** DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva,** professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei,** PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna,** CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** p.f.f.d., (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari ....................16
**Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna**

Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda ....................20
**Muxiddin Kalonov**

"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish ....................24
**Muhammadiyeva Maftuna**

Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati ....................27
**Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna**

Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash ....................31
**Dustmurodov Orifjon Ismatilloyevich**

Перспективы развития средств размещений в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана ....................40
**Ахмедходжаев Равшан Темурович**

Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari ....................49
**Toyirov Yunus Alamovich**

Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari ....................55
**Rustamov Alisher Raxmataliyevich**

Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish ....................62
**Ustadjalilova Xurshida Aliyevna**

Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati ....................67
**Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich**

Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi ....................71
**Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich**

Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari ....................76
**Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li**

Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya ....................81
**Yuldashev Iskandar Bahromovich**

Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar ....................86
**Jiyanova Nargiza Esanboyevna**

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari ....................93
**Z. Abdikarimova, S. Madaminov**

Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari ....................97
**Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov**

Sociological Assessment of Migration Processes ....................102
**Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli**

Current issues of business management in the context of digitalization of the economy ....................112
**Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich**

Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ ....................118
**Эркинов Шахзод Баходир ўғли**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce ............125
Abirkulova Sohibjamol

Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan) ............130
Bakhrom Nomazov

Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ............136
Bozorova Saxobat Abdujapparovna

Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy............142
Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli

O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli ............148
Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi

Agroklasterlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish ......155
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li

Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks ............160
Juraev K. T.

Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish ............164
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich

Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlarning roli va ahamiyati............169
Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili............175
Rahmatullayeva Dilbar Olimovna

Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish..181
Raxmatov Akmal Anvar o'g'li

The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan)............187
Rofeeva Rukhshona Shavkatovna

Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash tizimi............192
Sabirova Asal Shuhratovna

Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region ............196
Shakhzod Zokhidov

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish ............202
Kadirova Shaxnoza Ilhomovna

Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari............207
Usmonov Baxodir Suvonqulovich

Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari ............211
Nasimov Shavkat Vasiyevich

O'zbekistonda banklararo raqobat............219
Zunnunova Xulkar Muxtorovna

O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish ............225
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich

Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari ............229
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov

Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati............233
Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich

Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari....237
**Eshonqulov Azamat Abdiraximovich**

Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari....241
**Karayev Payzillaxon Yusufxonovich**

Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlari yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari....245
**Xidirov Alimardon Dagarovich**

The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English....248
**Nilufar Turdiyeva**

Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati....252
**Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li**

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi....256
**G. Sh. Qo'ldosheva, A. J. Toshboyev**

Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации....260
**Каюмова Паризода**

Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari...266
**G. I. Abdulxamidova**

Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива....272
**Shahzad Zokhidov**

Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise....275
**Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich**

Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан....282
**Холбекова Дилобар Расулжон кизи**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDA HISOBOT TUZISHNING BOSQICHLARI



**Eshonqulov Azamat Abdiraximovich**
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Buxgalteriya hisobi va hisoboti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida konsolidatsiyalashgan holda tuzishning nazariy, tashkiliy hamda uslubiy jihatlari ochib berilgan. Konsolidatsiyalashgan shaklda moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot, konsolidatsiyalashgan foyda va zararlar hamda jami daromad to‘g‘risidagi hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish asoslangan.

Kalit so‘zlar: konsolidatsiyalashgan, bosh korxona, sho‘ba korxona, sof aktivlar, gudvill.

Abstract: This article reveals the theoretical, organizational and methodological aspects of consolidated financial statements of joint-stock companies based on international standards. The consolidated statement of financial position, consolidated profit and loss and total income statement is based on international standards.

Key words: consolidated, parent company, subsidiary, net assets, goodwill.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические, организационные и методологические аспекты консолидированной финансовой отчетности акционерных обществ на основе международных стандартов. Консолидированный отчет о финансовом положении, консолидированный отчет о прибылях и убытках и совокупном прибылях и убытках основан на международных стандартах.

Ключевые слова: консолидированная компания, материнская компания, дочерняя компания, чистые активы, гудвил.

## KIRISH

Mamlakatimizda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni milliy standartdan xalqaro standartlarga transformatsiya qilish 2015-yildan yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada, 2021-yildan boshlab konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida majburiy tartibda yuritish lozimligi belgilab berilgan. Shunga muvofiq, bugungi kunda yirik subyektlarda, shuningdek aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida konsolidatsiyalashgan shaklda tuzish va uni tashqi foydalanuvchilarga taqdim etish xorijiy investorlarning ulushini oshirish va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzishni takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borish va takomillashtirish zarur.

Bu bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida [1] moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish, xorijiy investorlarni zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash va xalqaro moliya fond birjalariga yani, dunyo kapital bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlarga binoan bilim va ko‘nikmalarini oshirib, xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalariga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu qarorda bundan tashqari 2021-yil 1-yanvardan boshlab moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi hamda moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlaydigan tijorat banklari, aksiyadorlik jamiyatlari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar tadbirkorlik subyektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo‘yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etilishi belgilab qo‘yilgan. Bu jarayon yurtimizda xalqaro standartlarga o‘tishdagi asosiy qadamlardan biri bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish bo‘yicha xorijlik iqtisodchi olimlar ham ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan. Ular jumlasiga S.V.Moderov o‘zining dissertatsiyasida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning paydo bo‘lishi, AQSHda sanoat inqilobi boshlanishi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida ta’kidlab o‘tgan [2]. Ushbu olim izlanishi korporatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha qonunchilikka o‘zgartirish kiritilishiga olib keldi, natijada xolding tuzilmalarini tashkil etishga imkoniyat yaratildi. Professor Ya.V.Sokolov “moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari buxgalterlarning nazariy fikrlari uchun XX asr oxiridagi ajoyib yodgorlikdir” deb tarif berilgan[3]. Respublika olimlaridan N.B.Xo‘jabekov tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning milliy qonunchilik asosida takomillashtirish jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratilgan [4]. 8-BHMS “Jamlanma moliyaviy hisobotlar va sho‘ba xo‘jalik jamiyatla-ri sarmoyalarini hisobga olish” standartining 4-bandiga asosan Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar -hisobot sanasidagi moliyaviy ahvolni va xo‘jalik yurituvchi jamiyatlar guruhining hisobot davri uchun moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimi. deb izohlanadi[5]. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot 10-sonli MHXSga muvofiq ushbu guruhning moliyaviy hisoboti bo‘lib, unda Bosh korxona va uning sho‘ba korxonalarining aktivlari, majburiyatlari, kapitali, daromadlari, xarajatlari va pul mablag‘lari oqimini bir jamiyatning iqtisodiy moliya-xo‘jalik faoliyati sifatida ushbu mablag‘lar va ularning manbalari bo‘yicha umumlashtiriladi [6]. Vaxrushina M.A., Melnikova L.A takilashicha Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot - bu bosh korxona hamda uning sho‘ba korxonalari moliyaviy hisoboti bo‘lib, go‘yo bu korxonalar yagona korxona sifatida tuzilgan [7]. Paliy V.F. fikricha, “yig‘ma hisobot” atamasi “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot” atamasining to‘liq analogidir. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar konsolidatsiyaning ushbu sohasiga (yoki “konsolidatsiya perimetri” deb ataladigan) kiritilgan aktsiyalar bo‘yicha dividendlarni hisoblash uchun asos sifatida korxonalarning iqtisodiy birikmasidan olingan guruh daromadlaridan foydalanishga imkon beradi [8].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘rganish jarayonida mavzu bo‘yicha statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo‘llanildi. Tahlil davomida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJA

Korxonalarni birlashtirish deganda, alohida bir korxonaning ikkinchisiga qo‘shilishi yoki bir korxona ikkinchi korxonaning sof aktivlari va ishlab chiqarish faoliyati ustidan nazoratni sotib olish natijasidauzaga keladigan bir iqtisodiy birlikka qo‘yilishiga aytiladi. Bu, asosan, biror-bir faoliyat bilan shug‘ullanayotgan korxonaning egalari tomonidan ushbu korxona tarkibida bir nechta kichik mustaqil korxonalarni tashkil etishga bo‘lgan harakatidan kelib chiqadi. Buning natijasida soliq to‘lovlari qisqartirish yuzaga keladi.

Aksiyadorlik jamiyati korxonalarining bosh korxona nazorati ostida qo‘shilishi yuz bersa, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuziladi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot (konsolidatsiya inglizcha consolidate so‘zidan olingan bo‘lib, birlashtirmoq, mustahkamlamoq degan ma’noni anglatadi) bu yuridik jihatdan alohida, ammo iqtisodiy va moliyaviy tomondan o‘zaro bog‘liq ikki yoki undan ko‘p korxonalar hisobotlarini birlashtirishdir. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni umumiy - bosh va sho‘ba korxonalar guruhi sifatida ko‘rib chiqiladigan o‘zaro bog‘liq tashkilotlar bosh korxona hamda uning tarkibidagi sho‘ba korxonalari ning moliyaviy hisobotini ifoda etadi. Shu sababli, uning asosiy maqsadi ayrim jamiyatning hisobot maqsadi kabi hisobot davrida mulk va moliyaviy ahvolni, shuningdek hisobot davri uchun faoliyatning natijalarini ishonchli ifoda etish hisoblanadi. Moliyaviy hisobot bunday axborotning ichki va tashqi iste’molchilari, korxonalar egalari, bosh va sho‘ba korxonalari guruhi hamda kengashlar rahbarlari, uning tarkibiga kiruvchi jamiyat xodimlari, investor va kreditorlar, mahsulot yetkazib beruvchilar, xaridorlar, davlat, shuningdek, boshqa manfaatdor foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan. Ya’ni, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning asosiy vazifalarini ta’riflash mumkin:




1-rasm: Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning asosiy vazifalari[1]

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

asosida shakllanadi. Agar guruhda bironta kompaniyaning hisob obyektlari yoki operatsiyalariga nisbatan hisob siyosati guruhning hisob siyosatiga muvofiq kelmasa, bunday hollarda hisobot konsolidatsiyasi maqsadlari uchun korrektirovkalarni kiritish kerak.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot (KMH). Moliyaviy holat to‘g‘risida KMH tuzishdan oldin 5 ta bosqichda ishlar amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- Sho‘ba korxonasi xarid sanasida va hisobot sanasida sof aktivlari qiymatini hisoblash.
- Gudvil hisobi.
- Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasini (NQQH) hisoblash.
- Guruhning taqsimlanmaydigan foydasini hisoblash.
- Guruhning qayta baholash rezervi (QBR).

Yuqoridagi 5-bosqichdagi hisob-kitoblar amalga oshirilgandan so‘ng umumiy qoidaga muvofiq bosh kompaniya va sho‘ba kompaniyalarning aktiv va majburiyatlari satrlar bo‘yicha korrektirovkalarni hisobga olgan holda jamlash orqali moliyaviy holat to‘g‘risida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuziladi.

1-jadval: Moliyaviy holat to‘g‘risida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot[2]

| № | MHH moddalari | BK | ShK | Guruh | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Aylanma mablag‘lardan tashqari aktivlar: Gudvil | - | - | G | 2-bosqichda amalga oshirilgan hisob-kitoblar |
| 2 | Sho‘ba korxonalariga investitsiyalar | B | - | - | Chiqarib tashlanadi |
| 3 | Mulk, bino, mashina va asbob-uskunalar | B | Sh | B+Sh | +/- guruh ichidagi uzatishlar bilan bog‘liq korrektirovkalar, biznesni birlashtirishda SHK aktivlarini adolatli qiymati bo‘yicha qayta baholash |
| 4 | Nomoddiy aktivlar | B | Sh | B+Sh | +/- guruh ichidagi uzatishlar bilan bog‘liq korrektirovkalar, biznesni birlashtirishda SHK aktivlarini adolatli qiymati bo‘yicha qayta baholash |
| 5 | Boshqa aylanma mablag‘lardan tashqari aktivlar | B | Sh | B+Sh | +/- bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrektirovkalar |
| 6 | Joriy aktivlar: Zahiralar | B | Sh | B+Sh | +/- bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrektirovkalar |
| 7 | Debitorlik qarzlari | B | Sh | B+Sh | -guruh ichidagi operatsiyalar bo‘yicha qarzdorlik |
| 8 | Pul mablag‘lari | B | Sh | B+Sh | +guruh ichidagi hisob-kitoblar bo‘yicha pul mablag‘lari |
| 9 | Boshqa joriy aktivlar | B | Sh | B+Sh | +/- bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrektirovkalar |
| 10 | Xususiy kapital: Aksiyadorlik kapitali | B | Sh | B | Faqat B |
| 11 | Emission kapital | B | Sh | B | Faqat B |
| 12 | Qayta baholash rezerv | B | Sh | QBR | 5-bosqichdagi hisob-kitoblar |
| 13 | Taqsimlanmagan foyda | B | Sh | TF | 4-bosqichdagi hisob-kitoblar |
| 14 | Nazorat qilinmaydigan qatnashish hissasi | - | - | HQQH | 3-bosqichdagi hisob-kitoblar |
| 15 | Majburiyatlar | B | Sh | B+Sh | - guruh ichidagi hisob-kitoblari bo‘yicha qarzdorlik |

Egalik qilish uchun 20 foizgacha bo‘lgan, boshqacha aytganda passiv investitsiyalar. Moliyaviy aktiv sifatida qaraladi, bunda investor kompaniya dvidentlar ko‘rinishdagi daromadni fksiyalar haqqoniy qiymatining oshishidan foyda olishni ko‘zlaydi. Hisobi 9-son IFRS bilan tartibga solinadi.

20–50 foizgacha egalik qilish uchun ushbu holatda investor o‘zining uyishgan yoki qaram kompaniya hisoblangan investitsiya obyektlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatish mumkinligini anglatadi. Bunday investitsiyalarni baholash va hisobga olishda 28-son MHXS (IAS) Uyushgan korxonalarga investitsiyalarga asosan ulushli ishtirok etish uslubi qo‘llaniladi.

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Egalik qilish huquqi 50 foizdan ortiq – bosh kompaniyaning (BK) investitsiya obyekti, sho'ba korxona (SHK) ustidan nazorat qilishga olib keladi. Gurux shakllanadi hamda bosh kompaniya 10-son MHXS (IFRS) ga asosan konsolidatsiyalangan hisobotni tuzadi. Ko'pincha konsolidatsiyalangan hisobotga qo'shimcha ravishda ( asosan milliy regulyatorlar talablari bo'yicha) alohida moliyaviy hisobot ham tuziladi[5]. Ushbu holatda 27-son MHXS (IAS) Alohida moliyaviy hisobot deb nomlanuvchi standartga amal qilishi lozim. Ulushli investitsiyalarni tasniflanishining shartli ko'rinishi quyidagicha keltirishimiz mumkin.

- Moliyaviy aktivlar Boshqa (Passiv) investitsiyalar 0% dan 20% gacha 9-son son MHXS (IFRS) dvidentlart ko'rinishdagi daromadlar.
- Uyushgan kompaniyalar jiddiy ta'sir 50% 28-son MHXS (IAS) Ulushli ishtirok etish uslubi.
- Sho'ba kompaniyalar nazorat 100% 10-son MHXS (IFRS)- Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot 27-son MHXS (IAS) - Alohida moliyaviy hisobot [6].

Bir kompaniya (bosh/ona) boshqasi (sho'ba)ni sotib olayotganda yuridik jihatdan ular alohidaligicha qolaveradilar hamda alohida buxgalteriya hisobotini tuzishda davom etadilar. Biroq, iqtisodiy jihatdan ular yagona xo'jalik yurutuvchi subyekt (guruh)dir. Hamda iqtisodiy nuqtayi nazardan ushbu birlashtirilgan biznes nimaligini tushunish uchun muayyan qoidalar asosida ushbu kompaniyalar guruhining konsolidatsiyalangan moliyaviy hisoboti tuziladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilganimizda, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish, uni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda auditning turdosh xizmatlariga qo'yilgan barcha talablarni qamrab olishi va xalqaro standartlarida belgilangan mezonlarga rioya qilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Investorga boshqa investorlarga qaraganda ovoz berish huquqi qancha ko'p bo'lsa, investitsiya obyektining ahamiyatli faoliyatini boshqarish imkoniyatini beruvchi mavjud huquqlari borligi ehtimolligi shunchalik yuqori bo'ladi.Qolgan ovoz berish huquqlari qanchalik "tarqoq" bo'lsa, investorda unga investitsiya obyektining ahamiyatli faoliyatini boshqarish imkoniyatini beruvchi mavjud huquqlari borligi ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ– 4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. https://lex.uz/docs/4746047.
2. Модеров С.В. Совместимая финансовая отчетность: логика и техника построения: дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук (08.00.12). – СПб, 2013 с.13.
3. Соколов, Я.В. Судьба международных стандартов финансовой отчетности в России / Я.В. Соколов // Финансы и бизнес.– 2005. № 1. – с. 72.
4. Xo'jabekov N.B. Biznesni birlashtirishda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – T., 2009. – 22 b.
5. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 8-son BHMS "Jamlanma moliyaviy hisobotlar va sho'ba xo'jalik jamiyatlari sarmoyalarini hisobga olish". O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Standarti 04.11.1998 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 519, kuchga kirish sanasi 04.11.1998.
6. International Financial Reporting Standard 10 (IFRS 10) "Consolidated Financial Statements" / International Accounting Standards Board. – London, 2011. А-Б.банди.
7. Вахрушина М.А., Мельникова Л.А. Международные стандарты финансовой отчетн. – М.: Омега-Л, 2011, С. 389.
8. Палий В.Ф. Международные стандарты учета и финансовой отчетности: учебник. 6-е изд., испр. и доп. – М.: Инфра-М, 2013. 506 с.
9. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлар тўплами. http://www.accaglobal.com
10. International Financial Reporting and Analysis, 4- Edition. D. Alexander, A. Britton, A.Jorissen. 2009. 17-p
11. Hermanson, Roger H. Accounting: a business perspective /Roger H. Hermanson, James Don Edwards, Michael W. Maher. 6th ed., Irwin, Printed in the USA, 2009. 17 p.
12. Насреддинов С.С. Консолидациялаштирилган молиявий ҳисобот тузишнинг назарий ва услубий масалалари ("Дори-дармон" давлат акционерлик уюшмаси мисолида) иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати, Тошкент: 2004. – 22 б.
13. Ковалев В. В., Ковалев Вит.В. Анализ баланса. – 3-е изд., перераб. и доп. –Москва: Проспект, 2016. –317 с.
14. Alexander, D., Britton, A. and Jorissen, A. (2007): International Financial Reporting and Analysis. 3rd ed. London: Thomson. p. 25.
15. American Accounting Association (1936): A statement of objectives of the American Accounting Assotiation / American Accounting Association // Accounting Review. – 1936, Vol. XI. p. 3.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.